

## ADVOKAT KASB ETIKASI: MAZMUNI VA AHAMIYATI

Izbosarova Sevinch Orif qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Advokatlik faoliyati” yo’nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20384351>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdavokat kasb etikasi, advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmatini, advokat kasb etikasi qoidalarining o’ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo’llari, advokatlarning o’zaro munosabatlari, advokat kasb etikasi qoidalarining samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar o’rganiladi. Shuningdek, advokat kasb etikasining huquqiy tabiati, advokatlik faoliyatining huquqiy prinsplari, etika qoidalari va shartlari, advokatning o’zaro munosabatlari ko’rib chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** advokat kasb etikasi, huquqiy yordam, prinsplar, etika mezonlari, qoidalar, xorijiy tajriba, huquqiy islohotlar.

**Abstract.** This thesis examines lawyer’s professional ethics, the professional reputation and personal dignity of lawyers, the specific characteristics of lawyers’ ethical rules and ways to improve them, as well as the relationships among lawyers, the factors affecting the effectiveness of legal ethics rules, and the regulatory legal documents governing them. It also considers the legal nature of lawyers’ professional ethics, the legal principles of advocacy, and the rules and conditions of ethics.

**Keywords:** lawyer’s professional ethics, legal assistance, principles, ethical standards, rules, foreign experience, legal reforms.

### KIRISH

Mustaqil O’zbekistonda kechayotgan jamiyatning yangilanish hamda davlat boshqaruvini modernizatsiyalashtirish, mamlakatimizni jahon taraqqiyotining yuqori bosqichlari tomon yuksaltirish taqdiri ko’p jihatdan ma’naviyatga bog’liq. Bu har bir sohaning o’ziga xos kasbiy xususiyatlari, talablari qonun va qoidalari mavjudligidan dalolat beradi. Demak, huquq-tartibot, sud-huquq tizimi sohasining ham o’ziga xos axloq qoidalari mavjudligi – bor haqiqatdir. Yuristning kasbiy faoliyati o’ta mas’uliyatli va og’ir kasb sohalaridan biridir. Buning sababi – ushbu soha vakillari o’ta mas’uliyatli ishni inson taqdiri bilan bog’liq xatti-harakatlarga baho berish, davlat va jamiyat manfaatlarining ustuvorligini ta’minlash bilan shug’ullanishadi. Ayniqsa, advokatlik faoliyati sohasi vakillariga yuksak ma’naviy talablar qo’yilishi ushbu sohani tanlagan vatandoshlarimizdan avvalambor, yuksak ma’naviy fazilatlarini egallashni talab etib, ularning jamiyatni yangilash va zamonaviylashtirishga qaratilgan siyosat taqdiri bilan bog’laydi.<sup>1</sup> Shu bilan birga, advokatura har qanday huquqiy davlatning asosiy institutlaridan biri hisoblanib, uning faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko’rsatish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu munosabatlar yig’indisi esa bevosita advokat kasb etikasi va uning qoidalariga borib taqaladi. Endi esa avvalambor, “etika” deganda nimani tushunishimiz mumkinligini ko’rib chiqamiz.

<sup>1</sup> Ismailov B.I. 2019 y. Yuristning kasbiy etikasi, Darslik Toshkent – 2019

“Etika” so’zi qadimiy yunoncha «etos» (etos) so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “uy”, “birgalikdagi yashash makoni”, “insonlarning turar joyi” ma’nolarini anglatadi. Keyinchalik bu so’zning ma’nosi odob, axloq, ya’ni inson muomalasi doirasi va xarakteri o’rtasidagi aloqalarni, insoniyat sifatining muhim belgilari, fazilatlari ma’nosini bildiradi boshlagan. Demak, etika – kishilarda odob-axloq munosabatlarining, tushunchalarning, qadriyatlarining, qonuniyatlarining vujudga kelishini, ularning odamlarni boshqarishdagi o’rni va ahamiyatini o’rganadi, umumlashtiradi. Umumiy qilib aytadigan bo’lsak, etika bu axloqshunoslik sifatida ta’riflanadi. «Axloq» so’zi esa aslida arabcha so’z bo’lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Shu o’rinda, advokat kasb etikasi huquqiy va axloqiy prinspl, normalarning o’zaro aloqadorligi, huquqiy va axloqiy ongning bog’liqligi asosida shakllanadi.<sup>2</sup>

### ASOSIY QISM

#### Advokat kasb etikasi tushunchasi va mohiyati

Yuridik adabiyotlarda ko’pgina olimlar tomonidan “advokatning kasb etikasi qoidalari” va “advokatlik kasbi qoidalari” tushunchalari bir xil ma’noga ega, deya tariflanadi. Ammo bu ikki tushuncha bir-biridan tubdan farq qiladi. Kasb etikasining predmeti bu odob-axloqdir, u insonning ma’naviy fazilatlarida namoyon bo’ladi. Advokatning kasb etikasi qoidalarini qabul qilish zarurati, birinchi navbatda, advokatlikning o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq hisoblanadi. Y.S. Pilipenkoning fikrlariga qo’shilgan holda “... jamoat birlashmasi sifatida advokatlik kasbining ham, har bir advokatning ham mavjudligining belgilovchi asosiy maqsad adolat va xalqqa xizmat qilishdir. Bu axloqiy tamoyilsiz bo’lishi mumkin emas.

Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, advokat kasb etikasi – bu advokat kasbini boshqa yuridik kasblar orasidan ajratib turadigan tushuncha. Kasbiy mahorat qanchalik yuqori bo’lsa, axloq normalari ham shunchalik yuqori bo’ladi, va aksincha, axloq normalari qancha yuqori bo’lsa, kasbiy mahorat ham shunchalik oshadi. Advokatning kasb etikasi undan sotilmaslikni, qonunga sodiqlikni, hammaning qonun oldida tengligiga rioya etishni talab qiladi. Advokatura to’g’risidagi qonunchilikda belgilab qo’yilgan prinsplar ham aynan shunga qaratilgan. Advokat kasbi uchun axloq talablari o’ziga xos ma’noga ega.

Boshqacha qilib aytganda, advokatlik etikasi advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarning axloq kodeksidir. Agar sudyalik etikasi – bu sudyalar va jinoyat, fuqarolik sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilarining kasbiy faoliyati va xizmatdan tashqari xulqining axloqiy xarakterini ta’minlovchi yurish-turish qoidalari majmuyi bo’lsa, advokatlik etikasi – bu tegishincha advokatlarning yurish-turish qoidalari kodeksidir.<sup>3</sup>

Umuman, advokatlik etikasi advokatura xodimlarining qarashlari, ongining to’g’ri shakllanishiga imkon beradi, ularni axloq normalariga og’ishmay rioya qilish, haqiqiy adolatni ta’minlash, insonlarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, o’z sha’ni va obro’sini saqlashga yo’naltiradi. Advokatlik etikasi masalasi olimlarning ham, amaliy huquqshunoslarning ham qiziqish doirasi ostida hisoblanadi.

#### Advokat faoliyatining asosiy etik prinsiplari

Advokatlik etikasi – bu olimlar kabinetda o’ylab topgan narsasi emas, qadimgi mualliflarning sitatalari to’plami ham emas, balki advokatlarning o’z vijdonlari asosida tashkil

<sup>2</sup> Advokatura. Nurumov D. J., Matmurotov A.R. 2021.

<sup>3</sup> Advokatura. Nurumov D. J., Matmurotov A.R. 2021.

etilgan ularning erkin axloqiy tanlash mahsulidir. «Advokatura nazariyasi» mualliflari aytganidek, har bir advokatning vijdoni bor, lekin har bir advokat uni eshitishga tayyor emas. Bu borada etikaning vazifasi har bir advokatga uning vijdoni ovozi yetkazish.<sup>4</sup>

Kasb-etika qoidalarida advokatning qonun hujjatlariga rioya qilishi, kasbiy mustaqilligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda ishonch bildiruvchi shaxslarining ishonchlarini suiste'mol qilmasligi, advokatlik nufuzini oshirish, advokatlik kasbining qadr-qimmatini kamsitadigan xulq-atvorda bo'lmashligi, advokatlarning boshqa shaxslar bilan munosabatlarini o'z ichiga olgan. Advokat kasb-etika qoidalarining yana bir muhim jihatlaridan biri advokat bir qancha harakatlarni sodir qilishi mumkin emas. Bu kasb etika qoidalarida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxsning qonuniy manfaatlariga zid harakat qilishga, o'z foydasini ko'zlab, axloqsiz manfaatlar uchun yoki tashqi tazyiq ta'sirida yuridik yordam ko'rsatishga haqli emasligini ko'rishimiz mumkin. Advokat ishonch bildiruvchi shaxsga nisbatan turli xil mazmunda axloqqa zid keladigan shartlar evaziga yuridik yordam ko'rsatishi mumkin emas. Bu holatda advokat nafaqat o'z obro'siga balki advokatlik kasbi obro'siga ham putur yetkazgan bo'ladi. Ish bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxsga nisbatan zid pozitsiyada bo'lmashligi kerak va unga qarshi harakat qilishga haqli emas.<sup>5</sup> Faqatgina o'z himoya ostidagi shaxsni birovning aybini bo'yniga olib, o'zini ayblayotganligiga ishonchi komil bo'lsagina himoyasi ostidagi shaxsni huquqlarini himoya qilish maqsadida unga qarshi harakat qilishi mumkin. Lekin bilamizki, jamiyatda ba'zi hollarda odamlar turli xil maqsadlarda birovning aybini bo'yniga olib, javobgarlikka tortiladi. Jumladan, moddiy jihatdan qiynalgan odam pul evaziga boshqa birovning aybini bo'yniga olayotgan bo'lishi mumkin. Yoki yaqin qarindoshini himoya qilish maqsadida ham birovning aybini bo'yniga olishi mumkin. Bunday hollarda haqiqiy javobgar jazodan qutulib qoladi. Buning oldini olish maqsadida advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs haqida yetarlicha dalillar, ma'lumotlarni o'rganib, aniq pozitsiyada shaxsni huquqlarini himoya qilishi kerak.

#### **Advokatning ishonch bildiruvchi shaxs bilan munosabatlari**

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 6 moddasiga ko'ra advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan maxfiylik ta'minlanadigan sharoitlarda (shu jumladan uni qamoqda saqlab turish davrida) uchrashuvlarning soni, davomiyligi cheklanmagan holda hamda ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz xoli uchrashish huquqi mavjud.<sup>6</sup> Advokat ushbu huquqidan suiste'mol qilib foydalanmasligi lozim. Ya'ni uchrashuvlarning soni va davomiyligini cheklanmagan qilib belgilab qo'yilganligini iddao qilib ba'zi advokatlar bu huquqini suiste'mol qiladi. Bu orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi. Qonun hujjatlarda protsessual muddatlar belgilangan. Ushbu cheklangan muddatlarni advokat asossiz ravishda cho'zishga harakat qilib, o'tkazib yuborishi natijasida boshqa bir qonunlarning buzilishiga olib keladi. Misol uchun, Jinoyat protsessual kodeksi bo'yicha muddatlar aniq belgilab o'tilgan. Bu muddatlarning advokat

<sup>4</sup> [Advokatning kasb etikasi | Yuklab olish - pdfbox.uz](#)

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentyabrdagi qaroriga 8-ILOVA. Advokatning kasb etikasi qoidalari.

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-54503>

tomonidan asossiz ravishda cho`zib, o`tqazib yuborishi natijasida huquqni muhofaaza qiluvchi organlarning dalillar to`plashdagi harakatlarida bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin.

### **Advokatning huquqni muhofaza qiluvchi organ va sud bilan munosabatlari**

Sudyaga, prokurorga, boshqa advokatlarga va ishtirokchilarga hurmat bilan munosabatda bo`lish advokat etikasi asosiy talabidir. Shundagina sud muhokamasining samarali va adolatli o`tishi ta`minlanishi mumkin. Masalan, Qozog`iston Respublikasi Advokatlar uchun kasbiy odob-axloq kodeksi 4-bobida advokat va hamkasblar o`rtasidagi munosabatlar etikasi bayon qilingan. Unga ko`ra advokat hamkasblariga hurmat bilan munosabatda bo`lishga, jamoada normal ma`naviy-ruhiy muhitni saqlashga, zarur hollarda hamkasblariga maslahat yordami ko`rsatishga, yangi ish boshlayotgan advokatlarning ishiga e`tiborli bo`lishga, ularga o`z bilimi va tajribasi bilan yordam berishga majburdir.<sup>7</sup> Advokat o'z mijozlari bilan boshqa advokatning shaxsiy hayoti, uning moddiy ahvoli, kelib chiqishi, fuqaroligi va advokatga tegishli bo'lgan, ammo topshiriqning mohiyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa holatlarni muhokama qilmasligi kerak. Sud jarayonida advokat o`zini vazmin tutishi, sudni hurmat qilishi va protsessual tartiblarga rioya etishi kerak. Advokatning muomala madaniyati sudning obro`siga ham ta`sir qiladi. Jamiyat oldida esa advokat adolatni ta`minlash, inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi vazifalarni bajaradi.

### **XULOSA**

Mamlakatimiz huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo`lidan dadil odimlab borar ekan, bu borada ko`zlangan maqsadga erishish, avvalo, huquq tizimida keng va samarali islohotlarni amalga oshirishni, fuqarolarning huquqiy bilimi va savodxonligini kengaytirishni, shuningdek, ularni malakali yuridik yordam bilan har qachongidanda ko`ra to`liq va odilona ta`minlashni taqazo etadi. Chunonchi, huquqiy demokratik davlatda fuqarolar huquqini himoya qilish mazmun jihatidan davlat siyosati darajasidagi muhim masalalar sirasiga kiradi desak mubolag'a bo`lmaydi.

Boisi biz bosqichma-bosqich qurib borayotgan fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlatga emas, aksincha davlat fuqarolarga xizmat qilmog'i, ularning huquq va erkinliklarini ta`minlamog'i lozim. Be'jizga asosiy qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"<sup>8</sup>degan qoida mustahkamlab qo'yilgan emas.

Shu bilan birga, kasb etikasi qoidalari advokatning kasbiy xulq-atvori, mijozlar bilan munosabati, sud va boshqa davlat organlari bilan aloqalarida amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Zero, mazkur qoidalar advokatura institutining nufuzini oshirish, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va odil sudlovni ta`minlashda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2-modda, 4-bet. T.: "O'zbekiston"
2. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr, O'RQ-349-I-son. <https://lex.uz/ru/docs/-54503>

<sup>7</sup> <https://advokatura.kz/ru/>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2-modda, 4-bet. T.: "O'zbekiston"

3. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdaqi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi 721-I-son Qonuni.  
<https://lex.uz/uz/docs/-29626>
4. <https://paruz.uz/uploads/2025/01/kasb-etikasi-qoidalari.pdf>
5. Advokatura. Nurumov D. J., Matmurotov A.R. 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlal palatasining II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentyabrdagi qaroriga 8-ILOVA. Advokatning kasb etikasi qoidalari.